


Muhabbat Qurbonova, Ma'rufjon Yo'ldoshev

# MATN TILSHUNOSLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Muhabbat Kurbanova, Ma'rufjon Yo'ldoshev

### MATN TILSHUNOSLIGI

«Мухтарам устоз,  
А. Маматжонов!»  
Узоқ уфр, ойнавий хо-  
тир тасаввур, итродий  
барро моллик тилаб.

Ш. М. М.

18.10.2014

Toshkent  
"Universitet"  
2014

UDK 494.322 o'zb - 4(075,8)

Q 80

Qurbonova M. "Matn tilshunosligi" - Toshkent. "Universitet" nashriyoti - 2014

КБК 81.2 o'zb

Mazkur o'quv qo'llanmada matn kategoriyasining o'rganilishi, matn va kommunikatsiya, matn va uning tiplari, matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, nutq uslubi va uning ko'rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari, badiiy matnning tadqiq etish tamoyillari va usullari haqida so'z yuritiladi.

Qo'llanma magistrantlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar hamda keng kitobxonalarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: R.Sayfullayeva- filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Rafiyev - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyazova - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

5A 120102- Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi magistr talabalari uchun o'quv qo'llanma

O'zbekiston Milliy universiteti kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2013-yil 24-aprel, bayonnoma № 12)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining 2013 yil 20-avgustdagi 312-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tasdiqlangan va nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN - 978-9943-305-99-1

## "MATN TILSHUNOSLIGI" FANINING O'RGANISH OB'YEKTI VA MAQSAD-VAZIFALARI

"Matn tilshunosligi" fanining o'rganish ob'yehti matn hodisasi bo'lib, u gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan nutq ko'rinishidir. Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Tilshunos N.Turniyozov «matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin»<sup>1</sup>ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta'kidlaydiki, «matn lingvistikasi muammolarini bir so'zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib, til sistemasi unsurlarining nutqqa ko'chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo'lmaydi».

Ushbu o'quv qo'llanmada magistrnlarni matn tilshunosligi fanining maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, ularga fanning asosiy tushunchalari, muammolari haqida ma'lumot berish maqsad qilib olingan. Oquv qo'llanmada quyidagi masalalarga to'xtalindi:

- matn lingvistikasi fanining paydo bo'lishi, dunyo tilshunosligida matn kategoriyasining o'rganilishi, shakllanish bosqichlari, jahon tilshunosligida (I.R.Galperin, K.Kojevnikova, Ye.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik, V.G.Gak, M.V.Lyapon., O.I.Moskalskaya, A.A.Metsler, O.L.Kamenskaya va boshqalarning tadqiqotlari) va o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo'lishi (N.M.Turniyozov, A.Mamajonov, E.Qilichevlarning bu boradagi qarashlari. S.Boymirzayeva, M.Yo'ldoshevlarning tadqiqotlari);

- matn va uning til sistemasidagi o'rni, fanlarning sistemaviy tabiati, tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o'rni, tilning sistemalardan tashkil topganligi masalasi, matn va uning tarkibiy qismlari (fonema-leksema-morfema-gap-matn ierarxiyasi)ning sistemaviy tabiatini ochib berish;

- matnning eng asosiy kommunikativ birlik sifatidagi ahamiyati, matn va uning maqomini belgilash muammosi, matnning yondosh

<sup>1</sup> Турнизов Н. Матн лингвистикаси.-Самарканд, СамДУТИ, 2004, 21-бет.

hodisalarga munosabati, matnning til va nutq dixotomiyasidagi o'rini belgilash, matnga sof nutqiy birlik sifatida yondashish, matnning til va nutq birligi sifatidagi maqomi, bunday farazning falsafiy-metodologik asoslarini o'rganish,

- matn va kommunikatsiya munosabati, kommunikatsiya va uning vositalari, nutqiy akt, kommunikant tushunchalari, shuningdek, matn va uning tarkibiy qismlari, matn birliklari, gap, qo'shma gap, murakkab tuzilmali gaplar, supersintaktik birliklar, period, abzas tushunchalari, ularning o'zaro munosabati, so'z, gap va matn, matn birliklarining semantik-grammatik jihatlari haqida ma'lumot berish;

- matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari, makon va zamon ifodalovchi so'zlar, matn komponentlararo semantik va grammatik munosabatlar, ichki sintagmatik munosabatlar(matn birliklarining semantik-grammatik munosabati), tashqi sintagmatik munosabatlar(matn birliklarining boshqa birliklar bilan munosabati), matnda mantiqiy izchillik, uning saqlanishi, buzilishi, ataylab o'zgartirilishi. matnda modallikning ifodalanishi, paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda estetik qarashlarning ifodalanishi masalalarini o'rganish;

- matn va uning tipologik tasnifi: og'zaki matn, yozma matn, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn turg'un strukturali matnlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent) va erkin strukturali matn hikoya, muhokama matn, ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsianomalar), ommabop matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matnlar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

- matn va uslub munosabati, matnning funksional tasnifi masalasi, jonli so'zlashuv uslubiga munosabat, jonli so'zlashuv va adabiy til "zidligi", aloqasi; adabiy nutq uslublari: rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, uning zamon bilan bog'liqligi, hozirjavobligi, makon bilan aloqadorligi, o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

- o'zbek tilining badiiy tasvir vositalari: troplar (ko'chim): metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabilar; sintaktik

figuralar: takror, ellipsis, inversiya, gradatsiya, ko'p bog'lovchilik, bog'lovchisizlik, uyushqlik va b. haqida ma'lumot berish;

- matn va uning lingvistik tahlili, badiiy matnning lingvistik tahlili(fonetik tahlil, leksik-semantik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil), badiiy matnning lingvistik mikroskopik tahlili(fonetik sath, leksik-semantik sath, morfologik sath, sintaktik sath) ni sharhlash;

- badiiy matnning lingvopoetik tahlili, badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari(shakl va mazmun birligi tamoyili, makon va zamon birligi tamoyili, xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili); badiiy matnni tahlil qilish usullari(lisoniy tabdil usuli, matn variantlarini qiyoslash usuli, lug'atlarga asoslanish usuli, lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli) haqida ma'lumot berish.

## MATN TILSHUNOSLIGI FANINING SHAKLLANISHI

**Tayanch tushunchalar:** *matnshunoslik, dixotomiya, og'zaki nutq, yozma nutq, maxsus qo'llanish, nutq muhiti, stilistika, bog'lanishli nutq, nutq birligi, kommunikativ birlik, pragmatika, inson omili, zamon, makon*

Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar tilning barcha sath (fonologik, morfologik, sintaktik) larining har biri bilan bog'liq muammolar tadqiqida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Matn va uning tabiatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi.

Bugungi kunda matnning maqomi, uning til sistemasidagi o'rni, matnni lingvistik tahlil qilishda nimadan boshlamoq kerak, degan savollarga ham tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik mos kelmaydi. Masalan, matnning maqomini belgilash masalasida ham ba'zan turli xil fikrlarga duch kelamiz. Matnning belgilar tabiati nimalardan iboratligi, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish kerakmi, degan masalalar xususida ham turlicha nuqtai nazarlarni uchratishimiz mumkin.

Matn tilshunosligi masalalari juda ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Matezius, F.Danesh, V.Dressler, P.Hartman, I.Kovtunova, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T.Silman, N.Shvedova, K. Solganik, L.Loseva, O.Moskalskaya,

K.Abdullayev, N.Navro'zova kabi xorijlik tilshunoslar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan.

Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Chex olimi K.Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida og'zaki nutqiy jarayon, deb talqin qiladi.

I.R. Galperinninigi fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzun-yuluq gaplarni ham o'z ichiga oladi va uni tekshiruv ob'yekti bola oladigan matn deb e'tirof etish maqsadga muvofiq emas.

Matn tahlilini sintaksis yoki stilistikada o'rganish lozimmi, yoxud buning uchun "matn tilshunosligi" deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham fanda ayrim bahsmunozaralarga sabab bolgan.

O'tgah asrning 60-yillariga qadar gap sintaksisi lingvistik tahlilning eng yuqori pog'onasi, deb hisoblanar, lingvistik tadqiqotlar gap tahlili bilan tugatilar edi. Bir necha gaplarning mazmuniy va struktur yaxlitligidan tashkil topgan matn esa ilmiy tahlilga tortilmas edi.

Ma'lumki, gap tilning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo gap nutqiy jarayonda eng kichik birliklar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish maqsadga muvofiq.

Dunyo tilshunosligida matn va uning lingvistik tabiati haqida qator fikrlar o'rtaq tashlangan. Fransuz tilshunosi R.Bart: "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi" desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e'tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi.

K.Kojevnikova tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo'lishi alohida uqtiriladi. Olimaning matn komponentlari o'zaro ma'no jihatdan ham, grammatik jihatdan ham bog'lanishli bo'lishi haqidagi fikri e'tiborga molikdir, chunki

ko'pchilik tilshunoslar matn komponentlarini faqat mazmuniy bog'lanishli bo'lishini ta'kidlaydilar va ularning leksik-grammatik vositalar orqali bog'lanishini nazardan chetda qoldiradilar.

Chex tilshunosi K.Kojenikova matnni mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birlik sifatida tushinadi. Shuning uchun matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas, bob singari birliklar munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlanishi maqsadga nomuvofiqligini alohida ta'kidlaydi.

Yana bir chex tilshunosi Yan Korjenskiy matn talqinini *semantic* va *pragmatic component* tushunchalari bilan bog'lab olib boradi. Bunda u semantik komponent birinchi galda matn materialini uyushtiruvchi ma'no bazasida hamda uning voqelanishini ta'minlovchi vositalardan iborat, deb hisoblaydi. Olim semantik komponent jumlasiga so'zlovchini, ya'ni inson omilini ham kiritadi. Pragmatik komponent deganda esa, ma'no ifodasi sistemasida ahamiyat kasb etuvchi turli xil munosabatlarni tushunadi.

Nemis tilshunosi K.Ye.Haydolf matnni kommunikativ jarayondagi gaplarning ma'lum xabar berish uchun o'zaro bog'lanishi tarzida talqin etadi va matn tarkibida gaplarning tartib bilan o'zaro bog'lanib kelishida quyidagilar e'tiborga olinishi kerakligini ta'kidlaydi: a) fikr butunligi; b) leksik butunlik; v) kommunikativ butunlik; g) zamon va nuqtai nazar butunliklari.

Rus olimi M.V.Lyapon matn tavsifi quyidagi to'rt belgiga ko'ra asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Matn – bu jumalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manbadir.
2. Matn bu so'zlovchining nutqiy qobilyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.
3. Matn bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.
4. Matn bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

M.V.Lyapon matn shakllanishida inson omilining eng muhim omillaridan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba ekanligini ta'kidlaydi.

O'tgan asrning 90- yillaridan boshlab o'zbek olimlari ham matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar.

Bu jihatdan B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari, matn yaratish muammolari ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tuzilishidagi roli singari dolzarb masalalar haqida ma'lumotlar beriladi.

O'zbek tilshunosligida matn tadqiqi xususida gap ketganda, M.To'xsanovning "Mikromatn va o'zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar" mavzusidagi nomzodlik ishini ta'kidlash joiz.

A.Mamajonovning 1989 yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi ushbu masalaga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmasi ekanligi bilan diqqatga sazovor. Bu o'quv qo'llanmada matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar kabi qator masalalar yoritilgan.

M.Hakimovning "O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o'rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari ochib berilgan.

O'zbek tilidagi diniy matnlar ekzotik leksikasi tadqiqotchisi N.Ulug'ovning nomzodlik ishida tadqiqot obyekti bo'lgan. N.Ulug'ov diniy matn tilshunoslikda o'ziga xos alohida matn turi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq, degan fikrini ekzotik leksika materiallari asosida dalillashga intiladi.

Prof. E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" (2000) nomli o'quv qo'llanmasida matnning ko'rinishlari va uni lisoniy tahlil qilish namunalari berilgan. Eng muhimi, ishda poetik va nasriy matnlarni sharhlab o'qish hamda tahlil qilish matnning "lingvistik mikroskop ostida" o'rganishga oid mashq namunalari keltirilgan.

N.Turniyozov, B.Yo'ldoshevlar tomonidan ham ushbu fan bo'yicha ma'ruzalar matnlari nashr qilindi va fanning muhim tushunchalari haqida keng ma'lumot berildi. Mazkur qo'llanmamizda N.Turniyozov, B.Yo'ldoshevlarning yaratilgan ushbu asaridan ba'zi mavzularni yoritishda keng foydalanildi.

Ma'lumki, pragmatika tilshunoslikning yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. Lingvistik pragmatikaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida M.Hakimovning tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi o'zbek filologiyasida matn tilshunosligi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'ldi.

Mazkur qo'llanmaning mualliflaridan biri M.Yo'ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida matn nazariyasiga oid muhim ma'lumotlar beriladi. U, shuningdek, ushbu tadqiqot bilan bog'liq bir qancha o'quv qo'llanmalarni nashr qildirdi: "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" (T.2007), "Badiiy matn lingvopoetikasi" (T.: "Fan", 2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010).

M.Yo'ldoshevning yuqoridagi asarlarida matnning nazariy masalalari, uning maqomi, birliklari, matn turlari, matn tarkibiy qismlari, matn tarkibiy qismini bog'lovchi vositalar, badiiy matnning tahlil qilish tamoyillari (shakl va mazmun birligi tamoyili; makon va zamon birligi tamoyili; xususiylikdan umumiylikka o'tish tamoyili), badiiy matnning tahlil qilish usullari (lisoniy tabdil usuli; matn variantlarini qiyoslash usuli; lug'atlarga asoslanish usuli; lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli), badiiy matnning lingvistik tahlili (badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari, badiiy matnning leksik-semantik xususiyatlari, badiiy matnning morfologik xususiyatlari, badiiy matnning sintaktik xususiyatlari), badiiy matnda ko'chimlar kabi masalalar haqidagi ma'lumotlar magistrlar uchun tayyorlangan mazkur qo'llanma uchun asosiy manba bo'ldi, mavzuning xarakteridan kelib chiqib ularga murojaat qilindi.

O'zbek tilshunosligida matn muammolari tadqiqida yana bir salmoqli ish S.Boymirzayevaning "O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur doktorlik dissertatsiyasida matnning kategorial belgilari, matnning kognitiv-diskursiv xususiyatlari, matnning pragmativ mazmuni, matnning tushunish muammosi kabi qator masalalar kun tartibiga qo'yilgan. Bu

tadqiqot matn kategoriyasiga inson kognitiv faoliyati sifatida yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ana shu jihati bilan matn tilshunosligi fanining rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Matn muammolari tadqiqida yana bir jiddiy ish D. Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" (Toshkent, "Fan", 2013) nomli monografiyasidir. Mazkur tadqiqot matnning XX asrning oxirlarida shakllangan antroposentrik paradigma asosida tahlil etish masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda, xususan, o'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan. Jumladan, o'zbek tilida konseptning matn orqali ifodalanishi, kognitiv metaforalar, matn yaratilishida geshtaltning o'rni, shaxsning diskursiv faoliyati, shaxs va matn referensiyasi, matn va kommunikativ strategiya, matn persepsiyasi, matn persepsiyasida retsiptentning roli, til va assosiativ tafakkur aloqasi, president birliklar tushunchasi va ularning matn yaratilishidagi o'rni, o'zbek tilining president birliklari, o'zbek tilidagi o'xshatish, metafora, jonlantirish asosidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari kabi qator masalalar tahlil etilgan.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matn tilshunosligi muammolariga doir monografik tadqiqotlarni kuchaytirish, matnning turlari va ularning pragmatik imkoniyatlari kabi masalalarni keng miqyosda tadqiq etishdan iboratdir.

#### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. M.V. Lyaponning matn haqida mulohazalari haqida gapiring.
2. O'zbek tilshunosligida matn pragmatikasi bo'yicha amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishi kimga tegishli?
3. M. Yo'ldoshev matnning qaysi jihatdan tadqiq qilgan?
4. S. Boymirzayevanning tadqiqotlari matnning qaysi jihatlarini qamrab oladi?
5. D. Xudoyberganovanning tadqiqoti haqida gapiring.

#### Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009

2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. 2007
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: "Fan", 2008
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
5. Turniyazov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand. 2006
6. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.: 1989.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: "O'qituvchi", 1983.
8. Abdupatov M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Filol. fan. nom. ...diss. avtoref. – T., 1998.
9. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М.: "Наука", 1981.
10. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. "Высшая школа", 1981
11. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. "Высшая школа", 1990
12. Дрисслер В. Синтаксис текста. Новое в зарубежной лингвистике. М.: "Прогресс", 1978.
13. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. – М.: "Наука", 1987.
14. Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: 1980

#### I. MATN VA UNING TA'RIFI MASALASI

**Tayanch tushunchalar:** *matn, ijtimoiy-semiologik vazifa, inson kommunikativ faoliyati, matnning kategorial belgilari, semiotika, kommunikatsiya, struktura, pragmatika, tugallik, bog'liqlik, yaxlitlik, qismlarga ajralish, nutqiy akt*

Matn lingvistikasining u yoki bu sohasi bilan shug'ullanish, matnning biror bir xususiyatini tadqiq etishga kirishish uchun dastlab matn hodisasining mohiyatini, uning lingvistik tabiatini bilish lozim. Faqat shundan so'nggina matnning tuzilishi, uning strukturaviy, mazmuniy belgilari, inson kommunikativ faoliyatida tutgan o'rni, bajaradigan ijtimoiy-semiologik vazifalarini o'rganish mumkin. Har

qanday nutqiy tuzilmaning matn sifatida e'tirof etilishi uchun u ma'lum me'yordagi barqaror, tub xususiyatlarga ega bo'lishi zarurki, bu xususiyatlar matn mohiyatini belgilab beradi. Matnning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ularni o'tkinchi, favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladiganlaridan farqlash qiyin. Matn va uning maqomini belgilash, uning yondosh hodisalarga munosabatini ochib berish, matnning kategorial belgilari borasida qo'yiladigan savollarga javob topish yo'lidagi izlanishlar davom etmoqda.

Fikrlarning har xilligi, so'zsiz, tadqiqotchi tomonidan «matn» tushunchasining qaysi lingvistik hodisaga nisbatan qo'llanishi va ushbu hodisaning qanday nazariy g'oya asosida talqin qilinishiga bog'liq. Biror bir hodisa talqiniga turli nuqtai nazardan, turli xil tahlil usullarida yondashish xulosalarning, tavsif va ta'riflarning har xil bo'lishiga sabab bo'ladi.

«Matn» so'zini qo'llayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda ta'rif berishga harakat qiladi. Matn - ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ xususiyatlarni e'tiborga olish talab qilinadi. Ammo har bir tadqiqotchi, odatda, o'zini qiziqtirayotgan jihatlariga e'tibor qaratadi, natijada, berilayotgan ta'rif mukammal, batafsil bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, hech qaysi ta'rif matn kabi murakkab hodisani har tomonlama mukammal tavsiflay olmaydi. Shuning uchun har bir tadqiqotchi yoki tadqiqotchilar guruhining matn hodisasiga nisbatan o'ziga xos nuqtai nazari shakllanadi va rejalashtirilayotgan tadqiqot shu nuqtai nazarga bo'ysundiriladi. Matn hodisasiga berilayotgan ta'riflarning hech biriga qat'iy e'tiroz bildirish qiyin, chunki ularning har birida matn hodisasining u yoki bu jihatlari yoritilgan, demak, har bir kuzatishda tadqiq qilinayotgan ob'ektning ma'lum bir qirralari o'z ifodasini topadi.

Binobarin, dastlabki paytlarda tadqiqotchilarni ko'proq matnning tuzilishi, uning boshqa til va nutq birliklaridan farq qiluvchi jihatlarini aniqlash muammosi qiziqtirganligi sababli berilayotgan ta'riflarda ham xuddi shu strukturaviy jihatlar e'tiborga olingan. Bunday yondashuvlarda matn «nomlovchi birliklarning uzluksiz zanjiri ko'rinishiga ega bo'lgan gaplar ketma-ketligi» sifatida

talqin qilingan va asosiy e'tibor uning chegarasini aniqlashga qaratilgan.

Haqiqatdan ham, matn chegarasini belgilash masalasi uning ta'rifini berishda juda muhim talabdir. Matn chegarasini uning turlarini sanash vositasida ko'rsatisi mumkin (masalan, roman, risola, hikoya, maqola, xat, dialog va hokazo), lekin har qanday chegaralash amallarini bajarishda matndagi yaxlitlik uning tarkibidagi qismlarning o'zaro bog'liqligi semantik va strukturaviy jihatdan bir xilda ta'minlanishini taqozo etadi. Demak, struktur-semantik bog'liqlik matn chegarasini belgilovchi me'yor sifatida qabul qilinishi mumkin. S.I.Gindin tomonidan matnni aniqlash uchun uni qismlarga ajratish amalini qo'llash lozimligi taklif qilingan edi. Uning fikricha, «matnni o'zaro struktur va semantik bog'langan ketma-ket qismlarga ajratish imkoniga ega bo'lmagandagina» uning yaxlitligi haqida gapirish mumkin.

Aytish joizki, qismlar o'rtasida ma'noviy va strukturaviy bog'liqlikni ta'minlovchi vositalar to'plamini aniqlash matn sintaksisi tadqiqining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu vositalar leksik, morfologik va sintaktik ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, tadqiqotchilar oldiga qo'yiladigan muhim talablardan biri har qanday lisoniy hodisa tavsifida shakl va ma'no uyg'unligiga, ularning munosabati asosida yuzaga keladigan mundarijaviy xususiyatlarga ahamiyat berishdir. Matn strukturasi tahlilida ham shunday metodologik talab asosida yondashish maqsadga muvofiq. Matn murakkab tuzilma bo'lganligi uchun uning shakli ham lisoniy birliklarning aniq bir nutqiy tafakkur faoliyati sharoitida tartiblashuvi (aniqrog'i, tartibli bog'lanishi) sifatida tasavvur qilinishi kerak. «Struktura» tushunchasi falsafiy talqinda ob'ektning yaxlitligi va o'zligini ta'minlovchi barqaror belgilari va munosabatlari ta'rifini oladigan bo'lsa [Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, 1983:657], unda matn strukturasi lisoniy shaklning kommunikativ mazmundagi aksi yoki voqelik parchasi bayonida qoldiriladigan «izi», deb hisoblash mumkin. Matn o'ziga xos ichki va tashqi strukturaga ega hodisa. Uning ichki strukturasi ko'p tarkibli va ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lib, u fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarning o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi [Turniyozov, Yo'ldoshev, 2006:36-42]. Ammo matn strukturasi prosodik, emotsional-semantik qatlamlar ham mavjudki, ularni hech qanday



sathga joylashtirib bo'lmaydi. V.Hartung matnga xos bo'lgan prosodik, emotsional va mazmuniy xususiyatlarni qandaydir bir «qo'shimcha sathlar» sifatida qarab, ularga til tizimining ma'lum sathlaridan joy izlash befoyda ekanligini eslatgan edi.

Matnning tarkibiy qismlari hamda uning strukturaviy tuzilishi haqida mulohaza yuritilayotganda, uning grammatik tahlili (matn grammatikasi) bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Quyi sathlarga xos tahlil amallarining matn tahliliga har doim ham mos kelavermasligi ma'lum. Matn strukturasi nutqiy aktlar (harakatlar)ning kommunikativ munosabatlari o'z aksini topishi lozim.

G.V.Kolshanskiy lisoniy faoliyat asosida muloqot maqsadi turishini va til tizimi birliklarining asosiy vazifasi kommunikativ faoliyatni ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi. Uning ta'biricha, kommunikatsiya hamma vaqt fikr va axborot almashinish maqsadini ko'zlaydi yoki, boshqacha aytganda, u insonning mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan amaliy va nazariy ehtiyojlarini qondiruvchi muloqotdir. Lisoniy muloqotning ma'lum bo'lagi bo'lgan kommunikativ harakat ham matn birligi bo'lishi uchun ushbu talablarga to'la javob berishi lozim. Lekin axborot uzatish maqsadi o'zaro fikr almashinuvni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, kommunikatsiya intersub'ektiv (shaxslararo) faoliyatdir. Shuning uchun ham matn tarkibida ikkita nutqiy harakat o'zaro birikishi lozim, faqat shundagina eng kichik (minimal) nutqiy muloqot faoliyati hosil bo'lib, axborot uzatish maqsadi voqelanadi.

Matn muloqot birligi maqomini olishi uchun nafaqat mazmun, balki strukturaviy jihatdan ham tugal ko'rinishda bo'lishi kerak. Axborot uzatish harakatining samarali bo'lishi uchun ushbu axborot mohiyatini tashkil etuvchi, uning negizida turgan fikr mazmunan voqelikni aks ettirishi lozimligi ma'lum. Shu voqelikning o'z muloqot birliklarining mazmuniy va strukturaviy chegarasini belgilab beradi. Matnning mazmunan mustaqilligi (boshqalardan ajralib turishi) axborot ob'yektining denotativ mavzusi doirasida chegaralanadi, uning strukturaviy tugalligiga hamda «grammatik kategoriyalar sathidan ko'ra ko'proq ma'lum mavzu rivojining mazmunan tugallanishi darajasiga nisbatan aniqlanadi» [Kalshanskiy, 2006:30]. Demak, matnning chegarasi mazmun va shakl munosabatlari dialektikasi asosida belgilanadi. Bu munosabatlar matnning botiniy va zohiriy jihatlarida bir xilda aks topadi. Shu

sababli matnning grammatik tahlili haqida gapirilganda, uning ichki va tashqi mazmuniy tuzilishi qonuniyatlarini farqlash hamda matn tarkibiy qismlari botiniy munosabatlarining uning strukturasi zohirlanishi, qismlarning pog'onali tartiblashuvdagi ta'sirini aniqlash maqsadi ko'zlanadi. Matn grammatikasining bunday talqini «tugallik», «bog'liqlik», «yaxlitlik» va «qismlarga ajralish» (diskretlik) tushunchalarini matn hodisasining asosiy belgilari darajasiga ko'taradi.

#### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Matnni tavsiflashda qanday xususiyatlarni e'tiborga olish zarur?
2. Matnning murakkab hodisa ekanligini asoslang.
3. Matn hodisasining asosiy belgilari nima?
4. Matnning shakl va mazmun dialektikasiga munosabatini sharhlang.

#### Adabiyotlar

1. Boymirzaeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: 2007
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
4. Turniyazov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand, 2006
5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T.:, 1989.
6. Философский энциклопедический словарь, 1983
7. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. -М: "Наука", 1981.
8. Москальская О.И. Грамматика текста. Москва. "Высшая школа", 1981.
9. Каменская О.Л. Текст и коммуникация. Москва. "Высшая школа", 1990.
10. Калшанский Г.В. От предложения к тексту//Сущность, развитие и функции языка. – М.: "Наука", 1987.

## MATN VA UNING TIL SISTEMASIDAGI O'RNI

**Tayanch tushunchalar:** *sistema, mikrosistema, makrosistema, zamon va makon izchilligi, kogeziya, umumiylik va xususiylik, sistemaning butunligi, sistemaning yaxlitligi, til va nutq dixotomiyasi*

Ma'lumki, ilmdagi barcha fanlar tizimlardan, ya'ni katta va kichik bo'lgan sistemalardan tashkil topgan. Jumladan, tilshunoslik ham fanlar sistemasining bir bo'g'inidir. Shunday ekan, tilshunoslik fanga nisbatan mikrosistema hisoblansa, matnga nisbatan esa makrosistemadir. Xullas, nima bo'lgan taqdirda ham, barchasi umumiy bir yirik sistemaning tarkibiy qismlari, boshqacha aytganda, bir zanjirning turli xalqalaridir.

Bu xalqalar bir xillikni, jumladan, sistemaga xos bo'lgan umumiylikni taqazo qiladi. Mazkur umumiyliklardan biri-har bir sistema ma'lum bir maqsadni ko'zda tutadi. Demoqchimizki, fanlar sistema bo'lsa, ular ham har biri, o'z navbatida, muayyan maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Biz tilga olgan tilshunoslik bo'limlari ham, shu jumladan, matn ham ma'lum bir maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi. Shuningdek, sistemaning yana bir xususiyati – zamon va makon izchilligida ham namoyon bo'ladi. Fanlar ham, soha-yu bo'limlar ham tekshirilishi lozim bo'lgan masalalarning ma'lum bir davlatda va joyda, ya'ni, muayyan makon va zamonda ro'y berganliklarini nazardan qochirmaydi. Misol uchun, "O'zbek tilining sistem leksikologiyasi" fani bo'lsa uning sistemadagi o'rni yuqoridagi qarashga binoan, bugungi va O'zbekistondagi o'zbek tilini nazarda tutadi. Buni matnda ham ko'rish mumkin. Hatto mashhur rus tilshunosi I.R. Galperin o'z asarlarida matnning muhim xususiyatlaridan biri sifatlarida makon va zamon izchiligini, aniqroq aytganda, kogeziya hodisasini ochib berish uchun alohida bir bob ajratgan.

Ma'lumki, ob'yekt masalasi ham sistemaning umumiy jihatlaridan biridir. Chunki ilmda, umuman, fanlarni tekshirishda, ob'yekt ham muhim ro'l o'ynaydi. Mazkur umumiy jihat matnda ham voqelanadi. Ya'ni har bir matn axborot uzatar ekan, muayyan bir ob'yektga tegishli ekanligini tinglovchi bilan bir qatorda tekshiruvchi ham sezib turadi.

Bilish nazariyasidan ma'lumki, umumiylik va xususiylik masalasi sistemaning butunligi va yaxlitligini ko'rsatib berishda namoyon bo'lib, mazkur jihatlar ham matnning sistemaga mansubligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, matn ham ma'lum ma'noda makro va mikrosistemani hosil qiladi. Ya'ni o'zidan katta sistemaga, jumladan, tilga nisbatan mikrosistema, tarkibiy qismlari – so'z, gap, abzas, bob va bo'lim kabilarga nisbatan makrosistema bo'ladi. Shu o'rinda, matnning sistemaviylik xususiyatlari qatorida yana bir masala xususida fikr bildirish joiz. Sababi, matnning sistemaviylik harakatida uning nutqiy va lisoniy xususiyatlari ham aks etadi. Natijada, biz matnga batafsil va to'liq ta'rif berishimizda tilshunoslikdagi til va nutq dixotomiyasiga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Til va nutq dixotomiyasi matnning qanday birlik ekanligini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz bilamizki, ko'pchilik tilshunos olimlar matnni nutq hodisasi sifatida e'tirof etadilar. Kimdir matnga nutq parchasi, deya ta'rif bersa, yana kimdir nutq faoliyatining mahsuli yoxud o'zi deb tushunadi. Bularning barchasida matnning nutq bilan bog'liq bo'lgan jihatlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni so'zlovchi bilan tinglovchi o'rtasidagi o'zaro muloqot jarayonidagi kommunikativ xususiyatlari tushuniladi. Lekin matnning bugungi yondashuvlar natijasida eng yirik til birligi, deb e'tirof etilishi lingvistik jihatini ochib berishga undaydi. Bunda yuqoridagi ta'riflar o'zini oqlamaydi. Ko'rinadiki, matn faqat nutqiy birlik bo'lmay, lisoniy birlik hamdir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, matn ham boshqa sath birliklari kabi umumiylik-xususiylik dialektikasi asosida uqilishi va sharhlanishi kerak.

Matnning til va nutq dixotomiyasidagi o'rni masalasi nisbatan keyinroq o'rta qo'yildi. Matnning nutqiy xususiyati haqida ko'p gapirilgan, biroq lisoniy mohiyati hanuzgacha to'la ochib berilmagan. Demak, matnga ta'rif berishda ehtiyotkorlik bilan yondashish talab qilinadi. Chunki berayotgan ta'rifimizda matnning lisoniy mohiyati va nutqiy xususiyatlari birday qamrab olinishi kerak.

### Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Sistemaning xususiyatlari haqida gapiring.
2. Til-nutq dixotomiyasi haqida gapiring.
3. Umumiylik va xususiylik dialektikasi nima?

## Mundarija

“Matn tilshunosligi” fanining o‘rganish ob‘yeksi va maqsad-vazifalari.....	3
Matn tilshunosligi fanining shakllanishi.....	5
<b>I. Matn va uning ta’rifi masalasi.....</b>	<b>11</b>
Matn va uning til sistemasidagi o‘rni.....	16
Matn va kommunikatsiya.....	18
Matnning tarkibiy qismlari.....	23
Matn tarkibiy qismini bog‘lovchi vositalar.....	28
<b>II. Matnning kategorial belgilari.....</b>	<b>35</b>
Matn va uning tipologik tasnifi.....	38
Matn va uslub munosabati.....	43
Badiiy matni tahlil qilish tamoyillari.....	48
Badiiy matni tahlil qilish usullari.....	51
Badiiy matnning fonetik tahlili.....	56
Badiiy matnning leksik tahlili.....	59
Badiiy matnda ko‘chimlar.....	66
Badiiy matnning morfemik-morfologik tahlili.....	72
Badiiy matni sintaktik tahlil qilish.....	76
<b>III. Amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun tavsiya etiladigan taxminiy mavzular.....</b>	<b>82</b>
Fan yuzasidan nazorat savollari.....	83
Fan yuzasidan tavsiya etiladigan mustaqil ta’lim uchun savollar.....	85
Fan yuzasidan test topshiriqlari.....	86
Magistrlik dissertatsiyasi uchun tavsiya etiladigan taxminiy mavzular..	101
Glossariy.....	102
Fan yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.....	110

Muhabbat Kurbanova, Ma’rufjon Yo‘ldoshev

## MATN TILSHUNOSLIGI

Muharrirlar: D.Akmalova, S.Qurbonov

Bosishga ruxsat etildi 04.04.2014 y. Bichimi 60x84 1/16.  
Tezkor rizografda bosildi. Nashriyot hisob tabag‘i 7,0.  
Shartli bosma tabag‘i 12,1. Adadi 100 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.  
Buyurtma № 74.

“Universitet” nashriyoti. Toshkent – 100174. Talabalar shaharchasi. M.Ulug‘bek  
nomidagi O‘zMU ma’muriy binosi

O‘zMU bosmaxonasida bosildi

